



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI**

F A R M O Y I S H I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2016-yil 28-dekabrda PF-4904-son hamda “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 26-avgustda PF-124-son Farmonlari bilan davlat organlari, xo‘jalik boshqaruvi organlarining rahbarlari va mansabdor shaxslari, barcha darajadagi hokimlarga jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillarining sayyor qabullarini, shu jumladan Xalq qabulxonalari tomonidan tashkil etiladigan qabullarni muntazam o‘tkazib borishi, shuningdek, har yili kamida bir marotaba Vazirlik rahbariyati ishtirokida sohaviy fuqarolik jamiyati institutlari vakillari bilan ochiq muloqot o‘tkazilishini tashkil qilish belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari bilan belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash **maqsadida**:

1. Raqamli texnologiyalar vazirligi rahbariyatining 2025-yil I yarim yilligida respublika hududlarida o‘tkaziladigan sayyor qabullar va fuqarolik jamiyati institutlari vakillari bilan ochiq muloqotlar jadvali ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Vazir o‘rinbosarlari va maslahatchilari tasdiqlangan rejaga muvofiq belgilangan muddatlarda joylarda jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari bilan ochiq muloqotlar bilan uchrashsin va murojaatlar kelib chiqishiga sabab bo‘lgan masalalarning joyida ijobiy hal qilinishi bo‘yicha tegishli choralarni ko‘rib borsin.

3. Vazirlikning hududiy shu‘balari, tizimidagi agentlik, inspeksiya, aksiyadorlik kompaniya, jamiyat, korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari:

2025-yil I yarim yilligiga mo‘ljallangan sayyor qabullar va ochiq muloqotlar jadvalini ishlab chiqsin hamda o‘tkizilayotgan sayyor, ommaviy qabullar va ochiq muloqotlar natijadorligi hamda murojaatlarda ko‘tarilgan muammo va masalalarning mazmun-mohiyatiga, ularda jismoniy va yuridik shaxslardan tashqari fuqarolik jamiyati institutlari vakillarining ishtirokiga ham jiddiy e’tibor qaratsin;

o‘tkazilgan sayyor qabullar va ochiq muloqotlar bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har chorak yakuniga qadar Vazirlikka ma’lumot kiritib borsin.

4. Axborot-tahlil va ijro intizomi boshqarmasi (M.Azimov), Murojaatlar bo‘limi (D.Pulatov):

a) Hududiy bo‘linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi (V.Usmanov), Axborot xizmati bo‘limi (Sh.Axmatov):

hududiy shu‘balar bilan birgalikda jadvalga muvofiq qabullar va ochiq muloqotlarning belgilangan muddatlarda hududlarning chekka tumanlarida o‘tkazilishini tashkil etsin, sayyor qabullar va ochiq muloqotlar bo‘yicha

ma'lumotlarni umumlashtirib, tahlil qilgan holda har chorak yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga tegishli ma'lumotlar kiritib borilishini;

eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarga sayyor qabullarda murojaatlarini yo'llashida hamda qabul qilib olish uchun sharoit yaratish maqsadida surdotarjimon ishtirokini;

Respublika hududlarida vazirlik rahbariyati tomonidan sayyor qabul va ochiq muloqotlar o'tkazilishidan 10 kun avval e'lon berilishi va o'tkazilgan sayyor qabullar hamda ochiq muloqotlarning Vazirlikning veb saytida, ijtimoiy tarmoqlarda va ommay axborot vositalarida yoritib borilishini ta'minlasin;

b) hududlarda sayyor qabullar va ochiq muloqotlarni o'tkazish uchun borilganda Vazirlik hududiy shu'balarda, tizimdagi aksiyadorlik kompaniya, jamiyat, inspeksiya, korxona, tashkilot va muassasalarning hududiy bo'linmalarida murojaatlar bilan ishlash holatini o'rganish choralarini ko'rsin.

5. Vazirlikning hududiy shu'balari, tizimidagi aksiyadorlik kompaniya, jamiyat, inspeksiya, korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari murojaatlar bilan ishlash holatini o'rganish davomida tegishli hujjatlarni taqdim etsin hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rsin.

6. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Vazir



Sh. Shermatov

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Raqamli texnologiyalar vaziri



Sh. Shermatov
2025-yil 28-yanvar

Raqamli texnologiyalar vazirligi rahbariyatining 2025-yil I yarim yilligida respublika hududlarida o‘tkaziladigan sayyor qabullar va fuqarolik jamiyati institutlari vakillari bilan ochiq muloqotlar

J A D V A L I

T/r	Vazir, vazir o‘rinbosarlari va maslahatchilari	Lavozimi	Viloyat nomi, sayyor qabul vaqti					
			yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun
1	O.A.Pekos	Vazirning birinchi o‘rinbosari	Surxondaryo viloyati					
2	O.M.Umarov	Vazirning birinchi o‘rinbosari		Farg‘ona viloyati				
3	J.T.Maxsudov	Vazir o‘rinbosari			Samarqand viloyati			
4	R.O.Karimjonov	Vazir o‘rinbosari						Buxoro viloyati
5	J.Sh.Egamberdiyev	Vazir maslahatchisi					Andijon viloyati	
6	D.T.Rustamov	Vazir maslahatchisi				Xorazm viloyati		

Izoh: Vazir tomonidan viloyatlarda sayyor qabul navbatdan tashqari o‘tkazilishi hamda xizmat zaruriyati tug‘ilgan hollarda yuqorida keltirilgan sayyor qabul kunlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.